

www.uznet.gov.uz

B

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”

G.Sh. Rixsiyeva

2025-yil “ 20 ”



SHARQ TILSHUNOSLIGI TARIXI
(YAPON TILI)


FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200 000 – San‘at va gumanitar fanlar


Ta‘lim sohasi: 230000 – Tillar

Mutaxassisliklar: 70230101 - Lingvistika (sharq tillari)

Toshkent – 2025

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti direktori:  Mirzaxmedova X.V.

Yaponshunoslik oliy maktab boshlig'i  Xalmurzayeva N.T.

ARM boshlig'i  Yuldasheva M.M.

Fan/modul kodi ShTT 1204	O'quv yili 2025-2026	Semestr 2	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	O'rganilayotgan tili tarixi	48	72	120
2.	<p style="text-align: center;">I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarga Sharq tilshunosligi tarixiga oid bilim va malakalarni shakllantirishdir.</p> <p>Fanning vazifasi - Sharq tilshunosligi tarixiga oid zamonaviy tadqiqotlar va ushbu masala bo'yicha taniqli mutaxassislarining metodologiyasi asosida magistrantlarni yapon tilining shakllanishi va rivojlanishning dolzarb muammolari bilan umumiy ma'noda tanishtirishdan iborat.</p> <p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi Tsukuba universiteti¹ (University of Tsukuba ARWU 291), Nagoya universiteti² (Nagoya University ARWU 117) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.</p> <p style="text-align: center;">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p style="text-align: center;">II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p style="text-align: center;">1-mavzu. Til tarixi</p> <p>Til. Til va madaniyat. Tilning ijtimoiy hodisa sifatida xalq hayotida tutgan o'rnini. Yapon tili, uning tarixiy taraqqiyoti va jahondagi tillar silsilasidagi o'rnini. Yapon adabiy tili. So'zlashuv tili, yozuv tili. Yapon tili lahjalari. Sheva. Lahja, sheva va dialekt orasidagi farqlar.</p> <p style="text-align: center;">2- mavzu. Yapon tilining boshqa tillar bilan genetik aloqalari</p> <p>Yapon tilining genetikasi. Sheva materiallarini tarixiy-qiyosiy o'rganish til tarixini tadqiq etish. Yapon tilining imlo qoidalari. Tinish belgilari va ularning vazifalari. Bo'g'in. Bo'g'inlarning yuzaga kelishi va turlari. Urg'u. Suz urg'usi. Ohang urg'usi. So'z birikmasi va gap urg'usi.</p> <p style="text-align: center;">3-mavzu. Yamato Kotobani chuqur o'rganish zarurati³</p> <p>Yamato Kotobaning leksik funktsiyasi. Yamato Kotobaning</p>			

¹ https://www.ccgloc.tsukuba.ac.jp/page/page000295.html?utm_source=chatgpt.com

² <https://nuss.nagoya-u.ac.jp/v/4/NhsuSXtbsW8/>

³ https://www.japanese.tsukuba.ac.jp/syllabus/?utm_source=chatgpt.com AE13A91 日本語の語用論

fonetikasi. Yamato Kotobaning grammatik funksiyalari. Yamato Kotobaning yozuvi.

4- mavzu. Qadimgi yapon tili hozirgi yapon tiliga aylantirilgan davrdagi yapon tilidagi lingvistik hodisalarning xususiyatlari

Yapon tilida talaffuz masalasi. Qadimiy yapon tili. Mumtoz yapon tili. O'rtal asrlarda yapon tili.

5-mavzu. Grammatika haqida umumiy tushuncha⁴

Yapon tili tilshunosligida so'zlarni turkumlarga ajratish me'yorlari. Mustaqil va yordamchi so'z turkumlari. Grammatik ma'no, grammatik shakl, grammatik kategoriya tushunchalari. So'zlarni turkumlarga ajratish mezonlari. Yapon tilidagi so'z turkumlari stilistikasi. Yordamchi so'zlarning gapdagi vazifasi. Yordamchi so'zlarning ma'no jihatdan turlari.

6-mavzu. Badiiy tarjimaning tarixi

Tarjima tarixi. Stilistika xaqida ma'lumot. Asosiy chet tili uslublari. So'zlashuv uslubi va badiiy uslub. Ilmiy uslub tili. Ommabop uslubga oid matnlar tili. Rasmiy uslubga taalluqli hujjatlar tili. Ish qog'ozlari ustida ishlash tarixi. Yaponiya nashrlardagi maqolalar va ilmiy maqolalar yozish va bunda e'tiborga olinadigan jihatlar.

7-mavzu. Lug'atshunoslik va atamashunoslik tarixi

Yapon tilida atamashunoslikni vujudga kelishi. Atamalarning yasaliish usullari. Tilshunoslikka oid tushuncha va atamalarni tegishli jihatlarda tasniflash. Tilshunoslik masalalari yoritilgan manbalar mundarijasi. Adabiyotlarni tegishli guruhlariga jamlash. Yapon tilida jumalarning aktual bo'linishi. Yapon tilida gap bo'laklarini ajratib ko'rsatishning sintaktik usullari.

8-Mavzu. Yapon tilining funksional stillari paydo bo'lishi

Badiiy stil. Publisistik stil. Ommaviy axborot vositalari tili xususiyatlari. Rasmiy ish yuritish tili. Rasmiy ish qog'ozlari tili xususiyatlari.

9 - mavzu. Og'zaki-maishiy so'zlashuv stili

Me'yordan chetga chiqish holatlari. Ilmiy adabiyotlar tili stili. Tilshunoslikka oid ilmiy adabiyotlar tili xususiyatlari. Yapon tili va adabiyoti masalalarini tadqiq etilgan ilmiy adabiyotlar.

10-mavzu. Yapon tilining xorijiy tadqiqotchilari tomonidan "iso:go" ni batafsilroq o'rganish zarurati

Xiraganada yozilgan o'rtal davrdagi asarni olib uslub o'zgarishining taxlili. Yangi tilning o'rnatilishi. "Bakumatsu" davri, qatlamga xos bo'lgan til, Edo tili, Kioto tili, Tokio tili xususiyatlari.

⁴ <https://kdb.tsukuba.ac.jp/syllabi/2025/AE13861/ipn/0>

11-mavzu. Hozirgi yapon tilining dolzarb muammolari va stilistika muammolari va xushmuomalalik kategoriyalari

Yozma uslub, Og'zaki uslub, Yozma tilning birlashishi, rasmiy til Vabun, soubun, Stilning o'zgarishi xususiyatlari.

12-mavzu. Onomatopeya hodisasini yapon tili tarixi nuqtai nazaridan o'rganish

Meydzi davridan keyingi tadqiqotlar. O'rta asrdan keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar. Yapon klassik filologiyasidagi tadqiqotlarning mohiyati.

III. AMALIY MASHG'ULOTLARI BUYICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

Amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish yuzasidan kafedra tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalar, keyslar orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, mavzular bo'yicha tarjima ishlari, yozgan esselari taqdimotlarini tayyorlash, normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanish va boshqalar tavsiya etiladi.

Sharq tilshunosligi tarixi fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Yapon tilining umumiy xususiyatlari
2. Yapon tilining shakllanishi
3. Yamato-kotoba yoki vago
4. Yapon tilining davrlarga bo'linishi
5. Yangi davr bilan Edo davridagi yapon tilini qiyoslash
6. "Bakumatsu" davri, qatlamga xos bo'lgan til, Edo tili, Kioto tili, Tokio tili xususiyatlari
7. Fonologik o'zgarish
8. Chet eldan kirib kelgan so'zlarning fonetikasi
9. Yapon alifbosining o'zgarishi. Man'yogana", katakana, xiragana, eski yapon alifbosi
10. Davlat yozuvi muammosi, ieroglif, yangi alifbo
11. Yapon tilining yozuv sistemasining rivojlanish bosqichlari va uning natijalari
12. Yapon tilidagi gayraygolar va ularning qo'llanilishi

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

- o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlash;
- ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, vaqtdan unumli foydalanish;
- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;
- mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi;
- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilish, o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;
- badiiy-ijodiy ishni bajarish;
- kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;
- aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;
- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozaralar, savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;
- ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash;

“Sharq tilshunosligi tarixi” fanidan mustaqil ish sifatida quyidagi mavzulardan berilishi tavsiya etiladi:

1. Yapon tili o'rganilishining tarixiy davrlari
2. Yapon tili tadqiqotlarining olib borilishi
3. O'rta asrdan keyingi tilshunoslikka oid tadqiqotlar
4. Yaponiyaning o'rta asridagi til vaziyati
5. Yapon tili yozuvining shakllanishi tarixi
6. Hozirgi zamon yapon tilining shakllanishi
7. “Bakumatsu” davri, qatlamga xos bo'lgan til, Edo tili, Kioto tili, Tokio tili xususiyatlari
8. “Vago” va “Kango” ga mos leksemalarga bo'lish kriteriyalari
9. Davlat yozuvi muammosi, ieroglif, yangi alifbo
10. O'rta asrdagi hurmat shakllarining ifodalanishi

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan taqdimot tayyorlash tavsiya etiladi.

3.	<p style="text-align: center;">V. Ta'lim natijalari/ Kashiyl kompetensiyalari</p> <p><i>"Sharq tilshunosligi tarixi" fanini o'zlashtirish natijasida magistr:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> ● Uzlaksiz ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazilishiga ko'maklashish (o'quv personali), tadqiqotlarda ishtirok etish, ma'lumotlarni to'plash, umumiasosiy yapon tili tarixini tahlil etishni bilishi, yapon tilining shakllanishi bilan bog'liq bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, gumanitar va ijtimoiy fanlar asosini, uzoq sharq davlatlari siyosatining dolzarb masalalarini bilishi va uning ijtimoiy muammolari va jarayonlarini <i>bilishi kerak;</i> ● Yapon tili tarixiga doir asosiy ilmiy tadqiqot muammolari va maxsus tayyorgarlik yo'nalishidagi rivojlanish istiqbollari, fanlarning o'zaro aloqasini tushunish <i>tegishli ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak;</i> ● O'rganilayotgan tilda chet ellik mutaxassislar bilan yapon tili tarixiga oid umumiy masalalarda to'laqonli jonli muloqot olib borishi haqidagi nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar hosil qilish, klassik yapon tili matnlarni hozirgi adabiy yapon tilining yozma shakliga tarjima qila olish, ma'lumotlarini qo'llab annotatsiya, referat yozish, ma'lumotlar to'plash va tahlil qilish <i>malakalarga ega bo'lishi kerak.</i>
4.	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> ● ma'ruzalar; ● interfaol keys-stadilar; ● guruhlarda ishlash; ● taqdimotlarni qilish; ● jamoa bo'lib ishlash.
5.	<p>VII. Kreditlarni olish uchun magistr:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ishni topshirishi lozim.</p>
6.	<p style="text-align: center;">VIII. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI</p> <p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. 冲森卓也, 日本語全史、筑摩書房 (ちくま新書) 2017年、417 p. 2. 冲森 卓也(編著)/陳 力衛·肥爪 周二·山本 真吾、日本語史概説、2010年. 3. Гулямов И., Ишимура И. Япон тили тарихи. Ўқув қўлланма. –Т.: 2009. 4. Sherov S., O'zbekcha-yaponcha-ruscha-inglizcha lug'at, T., 2009

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Sh.M. Mirziyoyev. Hozirgi zamon va Yangi o'zbekiston. - Toshkent: o'zbekiston, 2024.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi o'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: o'zbekiston, 2023
1. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild.- Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun. -Toshkent: O'zbekiston, 2022.
3. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: O'zbekiston, 2022.
4. Алпатов В.М., Аркадьев П.М., Подлеская В.И., Теоретическая грамматика японского языка. Учебное пособие. 1,2, «Наталис», М.: 2008г.
5. 西限俊哉、やさしい倫理的思考トレーニング、アルク、2009年
6. 6今井 邦彦 (著), 西山 佑司 (著), ことばの意味とはなんだろう-意味論と語用論の役割, 岩波書店 2012, 328p.
7. 年沼田、外国語で発想するための日本語レッスン、白水社、2006. O 'quv qo 'llanma.

Scopus maqolalar

1. Journal of Japanese linguistics// volume 40, issue 1, San Francisco State University, USA, 2024.
<https://discovery.researcher.life/article/asahi-yoshiyuki-mayumi-usami-and-fumio-inoue-handbook-of-japanese-sociolinguistics/bf51ee4eb4d53ea1884d99630f8e2287> (scopus)
2. Von Heusinger, K., Schumacher, P.B., Discourse prominence: Definition and application, Journal of Pragmatics, <https://doi.org/10.1016/j.pragma.2019.07.025>(scopus)

Axborot manbalari

1. www.ziyo.net
2. www.wikipedia.com
3. www.geocities.co.jp
4. www.scopus.com
5. <https://www.sciencedirect.com/search?qs=japanese%20language>
6. <https://www.waseda.jp/inst/cjl/about/education/curriculum/>
7. <https://www.cegloc.tsukuba.ac.jp/page/dir000674.html>
8. <https://www.cegloc.tsukuba.ac.jp/page/page000350.html>
9. <https://nlb.ninjal.ac.jp/search/>
10. <https://tsukubawebcorpus.jp/search/>

7.	<p>Fanning o'quv dasturi Yaponshunoslik oliy maktabi tomonidan ishlab chiqilgan va 202__ yil “__”____ dagi __ -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p> <p>O'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 202 yil “ ” dagi _____ — sonli bayoni bilan tasdiqlangan.</p>
8.	<p>Fan/modul ucun ma'sul:</p> <p>Xalmurzaeva N.T– Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Yaponshunoslik oliy maktabi boshlig'i, Ph.D., dotsent</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>Gafurova X.Sh.– O 'zbekiston davlat jahon diplomatiyasi va siyosati universiteti dotsenti, Ph.D.</p> <p>Ibragimova M.M. – O 'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Yapon tili va amaliyoti kafedrasida katta o 'qituvchisi</p>